

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 noyabrdagi «Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi 893-sonli Qarorining ijrosini ta'minlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 2 oktyabrdagi PK-3306-son qaroriga muvofiq sportchilar, trenerlar va hakamlarning mahorati va malakasini muntazam oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, sport muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda o'quv-mashg'ulot jarayonlarining yuqori sifatini ta'minlash, shuningdek, «Kurash» milliy sport turini respublika aholisining keng qatlamlari o'rtasida, ayniqsa, voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida faol targ'ib qilish hamda ommalashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil

7 noyabrdagi «Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi 893-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мазкур қарори билан:

a) «Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb ataladi) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

b) Dasturda ko'rsatilgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari unda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi uchun shaxsan mas'ul ekanligi belgilab quyilganligi;

v) O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasiga ikki oy muddatda O'zbekiston kurash federatsiyasining buyurtmasi va texnik topshirig'i asosida Nukus shahri va viloyat markazlarida «Kurash» milliy sport turi markazlarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqishi va belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazish topshirilganligi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va viloyatlar hokimliklariga:

O'zbekiston kurash federatsiyasi bilan birgalikda Nukus shahri va viloyat markazlarida 2018-2020 yillarda namunaviy loyihalar asosida «Kurash» milliy sport turi markazlarini qurish reja-jadvalini ikki oy muddatda ishlab chiqish va tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda 2018-2020 yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirishda Nukus shahri va viloyat markazlarida «Kurash» milliy sport turi markazlarini qurish va jihozlash ishlari uchun zarur kapital quyilmalar limiti ajratilishini nazarda tutish topshirilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018 yildan boshlab, Kurash xalqaro assotsiatsiyasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har yili 100 million so'm miqdorida mablag' ajratishi belgilab quyilganligi;

e) O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga «Kurash» milliy sport turi kunini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Dasturda ko'rsatilgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari unda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi uchun shaxsan mas'ul ekanligi belgilab quyilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bir oy muddatda Qoraqalpog'iston kurash federatsiyasining buyurtmasi va texnik topshirig'i asosida Nukus shahri markazida «Kurash» milliy sport turi markazining namunaviy loyihalarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlasin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Nukus shahar hokimligi va Qoraqalpog'iston kurash federatsiyasi bilan birgalikda Nukus shahri markazida 2018-2020 yillarda namunaviy loyihalar asosida «Kurash» milliy sport turi markazini qurish reja-jadvalini bir oy muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda 2018-2020 yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirishda Nukus shahri markazida «Kurash» milliy sport turi markazini qurish va jihozlash ishlari uchun zarur kapital quyilmalar limiti ajratilishini nazarda tutsin.

6. Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi, Axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga «Kurash» milliy sport turi kunini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari M.Jumanov hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi raisi G'.Bayniyazov zimmalariga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

Izlash

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)